



УДК: 811.113:512.133 (575.1)

Gulsara KURBONOVA,
O'zMU dotsenti, f.f.d
E-mail : gulsara.kurbonovna@gmail.com

Prof. D.Djafarova taqrizi asosida

HOZIRGI FRANSUZ TILIDA POLISEMIYA MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola fransuz tilida polisemiya muammolarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, undan ko'zda tutilgan asosiy maqsad fransuz tilidagi so'zlarning ko'p ma'noliligini ochib berish va uni o'zbek tilida berilishini tadqiq etishdan iboratdir. Unda polisemiya tushunchasi nimani anglatishi izohlanadi, ko'p ma'nolilik va omonimlar o'rtasidagi farqlar aniqlanadi, ko'p ma'noli so'zlarning etimologiyasini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Polisemiya, omonimiya, invariant, etimologiya, leksik-semantik variant, sema, komponent tahlil, semantik yadro.

ПРОБЛЕМЫ ПОЛИСЕМИИ В СОВРЕМЕННОМ ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию многозначности именно этих слов, которая называется "Некоторые проблемы многозначности в современном французском языке", основной целью которой является выявление многозначности слов во французском языке и исследование ее распространения в узбекском языке. В ней объясняется, что означает понятие многозначности, разъясняются различия между двусмысленностью и омонимиями, раскрывается этимология двусмысленных слов.

Ключевые слова: Многозначность, омонимия, инвариантность, этимология, лексико-семантический вариант, sema, компонентный анализ, семантическое ядро.

PROBLEMS OF POLYSEMY IN CONTEMPORARY FRENCH

Annotation

This article is devoted to the study of the ambiguity of these words, which is called "Some problems of ambiguity in modern French", the main purpose of which is to identify the ambiguity of words in French and to study its distribution in the Uzbek language. It explains what the concept of ambiguity means, explains the differences between ambiguity and homonyms, and reveals the etymology of ambiguous words.

Key words: Ambiguity, homonymy, invariance, etymology, lexico-semantic variant, seme, component analysis, semantic core.

Kirish. Ma'lumki, barcha tildagi so'zlarning ayrimlari bitta ma'noga, ayrimlari esa ikkitadan tortib bir necha o'nlab ma'noga ega bo'lishlari mumkin. Bir ma'nolik so'zlarni tilshunoslikda monosemik so'zlar deyilsa, ko'p ma'noli so'zlarni polisemik so'zlar deb atashadi. So'zlarning aksariyat ko'pchiligi ana shunday ko'p ma'nolilik xususiyatiga egadir.

"Polisemiya (yunoncha polys – ancha-muncha ko'p, ko'p sonli, katta ko'lamdagi va yunoncha sema – belgi so'zlaridan tashkil topgan bo'lib), qandaydir holda bir so'zda (yoki so'z birikmasida, iborada, jumlada) turli ma'nolarning yoki mazmunlarning mavjudligi, bir belgi yoki belgilar birikmasining turlicha talqinidir. Polisemiya tushunchasi shuningdek mantiqda, semantikada va semiotikada ham qo'llaniladi." [8].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa bu so'zga quyidagicha ta'rif beriladi: "POLISEMIYA [p<grek] lingv. Bir so'zning bir necha ma'noga ega bo'lishi, ko'p ma'nolilik." [10].

Polisemiya bitta so'zda, so'z birikmasida, ibora yoki jumlada ko'p ma'noga egalilik xususiyatining mavjudligidir. Buning isboti tariqasida Samarqand Davlat chet tillar instituti o'qituvchisi G.S.Mustayevaning "Ko'p va keng ma'noli homme so'zining kontekstlardagi tarjimai xususida" nomli maqolasini aynan keltiramiz:

"Denotativ tabiatga ko'ra o'ta murakkab bo'lgan leksik birliklar qatoridan o'rin olgan fransuz tilidagi homme so'zi til sathida ham keng tushunchani ifodalashga, ya'ni

odamzodga mansub butun antroponimlarni anglatishga, ham ko'p ma'nolilikni bildirishga xizmat qiluvchi leksik birlikdir. Homme so'zi semantik strukturasining kontekstlarda voqelana olish imkoniyatlari, tabiiyki, bu kontekstlarning referensial aspektida o'rganilishi va tizimlashtirilishi masalasini ko'ndalang qo'yadi. Demak, homme so'zining har bir kontekstdagi referentini aniqlab olish tarjima nazariyasi uchun eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Aynan shu nuqtayi nazardan, biz homme so'zi leksik-semantik variantlarining kontekstlarda differensial voqelanishini o'rganishga jazm qildik.

Misollarimiz tahlili homme so'zi ishtirok etgan kontekstlarni semantik tabiatiga ko'ra quyidagi tiplarga ajratishga imkon berdi:

Homme – odam: 1. ...toute la nuit, les bêtes se parlaient comme des humains (Christian, Contes, 101). 2. Et il (Astruc) ouvre sa main grasse, et elle est pleine de ce beau blé, beau et solide comme un homme (Giono, regain, 151). 3. Les théâtres, comme les hommes, sont soumis à des fatalités (Balzac, Illusions, 335). 4. Elles (les idées) vivent; elles combattent; elles agonisent comme les hommes (Gide, faix, 236).

2. Homme – ayol zoti yoki shaxsi: homme so'zi orqali ba'zan ayol zoti nazarda tutiladi. Bu holat quyidagi vaziyatlarda kuzatiladi: a) ayolga xos sifat semasi voqelanganda: On n'est pas un homme tant qu'on n'a pas trouvé quelque chose pour quoi on accepterait de mourir

(Sartre); b) ayolga xos kuchsizlik semasi voqelanganda: Ce n'est qu'un homme. J'ai le cœur aussi bon, mais enfin je suis homme (Corn.). Ah! pour être dévot, je n'en suis pas moins homme (Mol.); v) vazifasi, mansab va martabasi qiyoslanganda: On s'attendait de voir un auteur, et on trouve un homme (Pasc). – biz muallifni ko'rishni kutgandik, biz esa ayol shaxsini ko'rib turibmiz [6].

3. Homme – a) erkak jinsiga mansub barcha yoshdagi odam zoti va b) katta yoshli erkak:

1. à l'appel de sa mère, il (bébé) leva la tête, aperçut la cuiller pleins de petits pois qui s'avancait vers lui, prit son assiette à deux mains comme un homme, la présenta à sa mère (Gréville, Amie, 56).

2. elle écrivait des lettres à Suzanne, et qu'elle signait comme un homme: Arthur dyespanet, en lui proposant de lyenlever...(Zola, Curée, 161).

3. Homme – birovg'a tobe shaxs: Harold s'était donc fait l'homme de Guillaume (Michelet). Un serment liait l'homme au seigneur – Arold nihoyat Giyomning vassaliga aylandi. Qasamyod vassalni senyorga bog'lab qo'yardi.

Homme – askar, jangchi, ryadovoy: Trente mille hommes en bataille rangée. Le caporal et ses hommes.

Homme – o'yinchi: homme à homme – o'yinchiga qarshi o'yinchi.

Homme – er: 1. Je connais des femmes, leurs hommes, ils s'arrangent, ils font de l'arnaque au marché noir (Aymé). 2. J'y (Mme Estiéve) étais devenue dure comme mon homme lui-même (Lesueur, Or., 174) [7].

Frantsuz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida denotatlarni nomlashdagi o'zgarishlar bir nomlash usulini boshqasi bilan almashtirish bilangina chegaralanib qolmayapti, balki anglatilayotgan tushunchaning hajmi va chegaralari bilan ham bog'liq bo'lyapti. Frantsuzcha homme giperonimining o'zbek tarjimalarida giponimik o'zgarishlaridan foydalanish zarurati, eng avvalo, bu so'zning ham paradigmaticada, ham sintagmaticada aniq kontekstlar sharoitida namoyon bo'ladigan keng ma'nolilik xususiyatidan kelib chiqyapti.

Frantsuz tilidan o'zbek tiliga homme so'zini tarjima qilishda tillararo mavjud giperonim – giponim munosabatlarining e'tiborga olinishi va shu oppozitsiya asosida shakllangan giponimik o'zgarishlarning tizimlashtirilishi tarjima ilmi uchun foydadan holi bo'lmagan usullardan biri sifatida xizmat qiladi, deb umid qilamiz [2].

Bundan frantsuz tilida faqat bittagina homme so'zigina ko'p ma'noga ega degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki polisemiya tilning turli ma'nolarni taqdim etuvchi o'ziga xos va o'ta muhim belgilaridan biridir. Boshqa bir misol: «violon» [9] so'zi chalinadigan musiqa asbobi skripkani, skripka chaluvchi musiqachini, politsiya uchastkasi (qamoqni) ifodalaydi.

Tilning umumiy so'z boyligi ko'pma'no'lik, polisemiya hodisalari bilan ham xarakterlanadi. Polisemiya atamasi birinchi marta M. Brelning 1897 yil «Ocherke semantiki» asarida qo'llanilgan. M. Brel bu atama ma'nosini so'zning tarixiy rivojlanishi natijasida yangi ma'noning paydo bo'lishi, deb izohlaydi.

Zamonaviy sinxron semantika bir so'z ma'nolarining o'zaro munosabatini, ularning strukturasi hamda tarixi va etimologiyasini o'rganadi. Polisemiya har qanday til uchun xarakterli va til belgilarining asimmetrik qonuniyatini namoyon etuvchi til universaliasidir [5].

Polisemiya yagona umumiy semantik yadro atrofida guruhlangan bir nechta ma'nolarning mavjudligi deb ta'riflash mumkin. Bu umumiy yadroni invariant, turli xil o'zaro bog'langan ma'nolarni uning varianti sifatida qarash mumkin. Tilshunoslikda A.I.Smirnitskiy ko'p ma'noli so'zning bir

ma'nosini leksik-semanti variant (LSV) termini bilan atagan [3].

Komponent tahlilida ushbu atama semaga ajratiladi va ko'p ma'nolikni bir so'zning bir necha xil semalarining o'zaro aloqalari orqali aniqlanadi, umumiy sema esa semantik yadro vazifasini bajaradi. Masalan, «berger» – 1) cho'pon; 2) ovcharka (it), so'zining umumiy semasi «podani qo'riqllovchi» ma'nosini ifodalaydi. «Berger» so'zining ikki leksik-semantik variantini quyidagi ko'rinishda tasvirlashimiz mumkin [9]:

ishchi it

podani qo'riqllovchi [10. S. 1025.].

So'zning semantik strukturasi aniqlash umumiy semani ajratishni ko'zda tutmaydi. Odatda so'zning leksik-semantik varinatlari orasida aniq iyerarxiya mavjud bo'ladi. Ularning orasidan bosh ma'no ajratiladi, ikkinchi darajali ma'nolar esa yasama ma'no hisoblanadi.

Semantik invariantning o'rnatilishi o'ziga xos ma'no «siljishi» yo'li bilan sodir bo'ladi. Masalan, «acte», (acte de naissance, acte d'une pièce de théâtre), pièce (pièce de drap, pièce en trois actes) [7] so'zlarining ma'nolarini aniqlashda qiyinchilik tug'iladi, chunki so'zning semantik strukturasi ko'pincha uzoq tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, har doim ham so'z ma'nolarini bog'lovchi zvenoni topish qiyin. Shu tariqa ko'p ma'noli so'zning semantik strukturasi bosh (boshlang'ich) va ikkinchi darajali (yasama) ma'nodan iborat. Asosiy ma'no kontekst ma'nosini eslatuvchi so'z birinchi ongimizda hosil bo'ladi va pragmatik jihatdan ko'proq, sintagmatik jihatdan kamroq asoslanadi. Bir leksik-semantik paradigmaga kiruvchi so'zning asosiy ma'nosi boshqa so'zga qarama-qarshi qo'yilganda ochiladi, masalan: «prendre» – «olmoq» – «donner» – «bermoq» yoki bir sinonimik qator: prendre, saisir, empoigner, syemparer, attraper kabi. Ko'p ma'noli fe'llning boshqa ma'nolari so'z birikmalari, fe'lli konstruksiyalar, kontekstlarda ochiladi, masalan: «prendre l'occasion, prendre qn en amitié, prendre des ordres, prendre femme, prendre une personne pour une autre» [1] va h.o.

Frantsuz tilida polisemiya ko'p ishlatiladigan leksik birliklar orasida ko'pchilikni tashkil etadi. So'zning polisemiyasini o'rganish, uning qo'llanilish chegarasini aniqlash so'zning turli xil ma'nosiga qaramasdan so'z birligini saqlanib qolishi yoki so'z birligi ifoda etayotgan ma'nolar orasidagi bog'liqlik yo'qolganda, bitta so'zning leksik-semantik variantlari o'rniga talafuzi bir xil bo'lgan turli xil so'zlar – omonimlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishni nazarda tutadi. Ba'zi o'rinlarda normativ yo'nalishdagi lug'atlar (Petit Robert) ko'pincha so'z birligini saqlab qoladi, ba'zi lug'atlarda (Dictionnaire du français contemporain) esa ko'p ma'noli so'zlarni omonimlarga bo'ladi. Frantsuz tilida polisemiya ko'p ishlatiladigan leksik birliklar orasida ko'pchilikni tashkil etadi. So'zning polisemiyasini o'rganish, uning qo'llanilish chegarasini aniqlash so'zning turli xil ma'nosiga qaramasdan so'z birligini saqlanib qolishi yoki so'z birligi ifoda etayotgan ma'nolar orasidagi bog'liqlik yo'qolganda, bitta so'zning leksik-semantik variantlari o'rniga talafuzi bir xil bo'lgan turli xil so'zlar – omonimlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishni nazarda tutadi. Ba'zi o'rinlarda normativ yo'nalishdagi lug'atlar.

Polisemiya va omonim uchun umumiylik bir so'zning bir nechta ma'noda qo'llanilishi bo'lib, shakli jihatdan o'xshash va mazmun jihatidan turlichaligidir. Paydo bo'lishi polisemiya bilan bog'liq omonimlar ham talafuzi, ham yozilishi jihatdan bir xil bo'lsa omofonlar yoki omograflar deyiladi. Semantik omonimlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: «glace» – «muz» – «glace» «oyna»; «génie» – «qobiliyat» – «génie» (harb.) «in-jenerlik ishi»; «jumelle» (mr. jumeau) – «egizak» – «jumelle(s)» – «binokl»; «ordonnance» – «qorovul» – «ordonnance» – «retsept»;

«tirer» – «tortmoq» – «tirer» – «otmoq»; «goutte» – «tomchi» – «goutte» – «podagra» va b.o [4].

Polisemiya va omonim chegarasini aniqlash sema tahlili yordamida amlaga oshiriladi: agarda ma'nolar o'rtasida umumiy semantik element saqlangan bo'lsa, ularni polisemiya deyishimiz mumkin. «Ami» – «do'st» va «ami» – «do'stona» yoki «violon» – «skripka» va «violon» – «skripkachi» so'zlari bir ma'noli so'zlardir, semalar o'rtasidagi umumiy semantik bog'liqlik saqlanib qoladi, semlar o'rtasida metafora, metonimiya kabi semantik derivatsion bog'liqlik o'rnatish mumkin. Umumiy semantik elementning yo'qligi esa omonimni bildiradi, masalan «grève» – «ish tashlash» – «grève» – «qum qirg'oq», «voler» – «uchmoq» – «voler» – «o'g'irlamoq» kabi [9].

«Grève» – «ish tashlash» so'zi 1803 yilda paydo bo'lgan Grev maydoni, ilgari place de l'Hôtel-de-Ville nomidan olingan. Mazkur so'z bilan bog'liq «Place de Grève», «faire grève» kabi idiomatik iboralar ham mavjud. Biroq uning etimologiyasi XIX asrda paydo bo'lgan, ungacha bu so'z qum yoki shag'al plyaj ma'nosini bildirgan. U yer Parijning kemalari to'xtaydigan qirg'oq bo'lgan va Grev maydoni deb atala boshlangan. XIX asrdan boshlab, ishsizlar ish topish ilinjida Grev maydoniga yig'ila boshlagan. shuning uchun ham «être en grève» va «faire grève» 1845 yildan boshlab «ishsiz bo'lmoq», «ish izlamoq» ma'nosida qo'llanila boshlagan. Keyinroq esa yollanma ishchilar ish sharotidan norozi bo'lib, ish joylarini tashlay boshlaganlar va Grev maydonida yig'ilganlar, shundan «être en grève»/«faire grève» ma'nosi o'zgarib, zamonaviy «ish tashlamoq» ma'nosida qo'llanilgan. Shu tariqa «Grève» – «ish tashlash» so'zining ma'nosi «qum qirg'oq» so'zining ma'nosi bilan bog'liq. Mazkur so'zning turli xil yasama so'z va iboralar omonim mezonlari sifatida xizmat qiladi. Bu mezon ko'pgina lug'atlarda keng qo'llaniladi, masalan «grève» – «ish tashlash» so'zi quyidagicha yasama so'z asosiga ega «grèviste, antigrève, se mettre en grève, faire grève»; «voler» «o'g'irlamoq» so'zi esa «voleur» – «o'g'ri», «volerie»

«o'g'rilik» [6] kabi o'zak so'zdan hosil bo'lgan yasama ma'nolarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, ba'zibir so'zlar faqat bitta ma'noni anglatadi. Ammo frantsuz tilidagi so'zlarning aksariyat qismi ko'p ma'noga egadirlar. Bu hodisa tilshunoslikda polisemiya nomi bilan ataladi. Polisemiya ko'p ma'noga ega bo'lgan bir so'zning o'ziga xos xususiyatidir yasama so'zlarning mezonlarini semantik mezon qatorida qo'llash mumkin, chunki so'zning aniq polisemiyasi holatida ham turli xil yasama so'zlar hosil qiladi.

Polisemiyaning omonimlardan farqlash lozim. Polisemiya so'zlarning ko'p ma'noliligi bo'lsa, omonimiya so'zlarning shakl va talaffuzi bir xilligi, ma'nolarning esa ko'p xilligidir. Frantsuz tilida omonimlarning omograf va omofon deb nomlanuvchi ko'rinishlari mavjud. Omograflar yozilishi bir xil so'zlar bo'lsa, omofonlar esa talaffuzi bir xil, yozilishi farqlanuvchi so'zlardir. Turli so'z turkumlariga kiruvchi so'zlar bir-biriga omonim bo'la oladi.

Ba'zibir so'zlar faqat bitta ma'noni anglatadi. Ammo frantsuz tilidagi so'zlarning aksariyat qismi ko'p ma'noga egadirlar. Bu hodisa tilshunoslikda polisemiya nomi bilan ataladi. Polisemiya ko'p ma'noga ega bo'lgan bir so'zning o'ziga xos xususiyatidir.

So'z asl ma'nosiga va ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Asl ma'no so'zning birinchi ma'nosi, uning eng aniq ma'nosidir. Ko'chma ma'no esa uning hosil qilingan ma'nosi, obrazli ma'nosidir. Matnda so'zning ma'nosini tushuntirib berish uchun kontekstda so'z qaysi ma'noda kelayotganini e'tiborga olmoq zarur.

So'zning semantik maydoni uning turli ma'nolarini o'zida jam qilgan bo'ladi. Demak, so'z o'z ma'nosini quyidagi hollarda o'zgartirishi mumkin:

- kontekstdagi vazifasiga qarab;
- asl yoki ko'chma ma'noga egaligiga qarab.

So'zning semantik maydonini bilish uchun uning turli ma'nolarini lug'atdan qidirib topishning o'zi kifoya qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Gak V.G. Языковье преобразованиа. М.: Высшaya shkola, М.: Высшaya shkola, 1989. – 800 s.
2. Mustafayeva G.S. Ko'p va keng ma'noli homme so'zining kontekstlardagi tarjimasi xususida. Qarang:Badiii tarjima tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo aloqalar kontekstida (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Jizzax, 2011 yil, 22-23 aprel), 96-b.
3. Smirnitkiy A. I. Leksikologiya angliyskogo yazyka. M.: Moskovskiy Gosudarstvennyy Universitet, 1998. – 260 s.
4. Benveniste E. Problèmes de linguistique générale, Paris, PUF. 1974.
5. Breal M., Essai de sémantique (science des significations), Paris, Hachette, 1997.
6. Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française, réd. dirigée par Alain Rey et Josette Rey-Debove, 2e édition, Paris, 1992. – 1552 p.
7. Dictionnaire du français contemporain. Paris, Librairie Larousse. 2001. – P.58.
8. Entsiklopedicheskiy slovar, M., "M", 1985. – 1025 s.
9. Ganshina K. A. Frantsuzsko-russkiy slovar. M., «Russkiy yazyk», 1982. – 878 s.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. M., "Rus tili" nashriyoti, 1981, 1-jild, 597b.